

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ODIL SUDLOV AKADEMIYASI**

O‘zbekiston Respublikasi
Odil sudlov akademiyasi Kengashining
2026-yil 29-iyundagi qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

**70420115 – “SUD FAOLIYATI” MAGISTRATURA MUTAXASSISLIK
FANLARI BO‘YICHA
IMTIHON DASTURI**

Toshkent – 2026

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashining 2026-yil 29-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|----------------------|---|---|
| I.T.Palvanov | – | Odil sudlov akademiyasi O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i |
| L.I.Achilova | – | Odil sudlov akademiyasi Magistratura fakulteti dekani |
| M.A.Shermatov | – | Odil sudlov akademiyasi Magistratura fakulteti bosh mutaxassisi |

Taqrizchilar:

- | | | |
|----------------------|---|--|
| T.A.Obidov | – | Odil sudlov akademiyasi Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri y.f.f.d. |
| L.M.Burxanova | – | Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho'ba professori, yuridik fanlari nomzodi |

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi 2026-yil.

I. KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 25-iyundagi 327-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi shuningdek, ta'lim sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda vakolatli davlat organlarining me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Imtihon dasturi 70420115 – "Sud faoliyati" magistratura bosqichiga kiruvchi ichki abituriyentlarning huquq sohasidagi fundamental bilimlari, nazariy tushunchalari hamda amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, kirish imtihonlarini yagona talablar asosida tashkil etish va o'tkazishga xizmat qiladi.

II. DASTURNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Imtihon dasturining asosiy maqsadi

Magistratura bosqichiga kiruvchi ichki abituriyentlarning huquq sohasidagi fundamental bilimlari, nazariy tushunchalari hamda amaliy ko'nikmalarini obyektiv va xolis baholash orqali tanlov jarayonini shaffof va adolatli tashkil etishdan iboratdir.

2.2. Dasturning asosiy vazifalari

Magistraturaga kiruvchi ichki abituriyentlarning huquq sohasi bo'yicha bilim darajasini aniqlash, huquqiy normalarni tushunish, tahlil qilish va amalda qo'llash ko'nikmalarini baholash, abituriyentlarning mantiqiy, tizimli va tahliliy fikrlash qobiliyatini aniqlash, muammoli huquqiy vaziyatlarni hal etish va asoslangan xulosa chiqarish layoqatini baholash, tanlov asosida eng munosib nomzodlarni saralab olish uchun yagona baholash mezonlarini joriy etish, imtihon jarayonining shaffofligi, xolisligi va adolatliligini ta'minlash.

2.3. Kirish imtihonini tashkil etish

Kirish imtihoni magistratura bosqichiga qabul jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, ichki abituriyentlarning 70420115 – "Sud faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida yagona talablar asosida tashkil etiladi. Imtihon jarayoni belgilangan tartib-qoidalariga muvofiq ravishda, shaffoflik, xolislik va tenglik prinsiplariga tayangan holda o'tkazilib, barcha ishtirokchilar uchun bir xil shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

2.4. Bilim va malaka darajasini baholash

Imtihonlar ichki abituriyentlarning huquq sohasidagi nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va tahliliy fikrlashini kompleks baholaydi. Baholashda normativ-huquqiy hujjatlarni tushunish va qo'llash, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish darajasi baholanadi. Baholash yagona mezonlar asosida o'tkazilib, obyektivlik va adolat tamoyillari ta'minlanadi.

2.5. Magistraturaga tanlov asosida qabul qilish

Magistratura mutaxassisligiga qabul teng huquqlilik, yagona qabul qoidolari va tanlov asosida amalga oshirilib, kirish imtihonida yuqori ball to'plagan abituriyentlar to'plagan ballari reytingi asosida qabul qilinadi.

Tanlov, qoida tariqasida, avgust oyida magistraturada o'qitiladigan tilda o'tkaziladi.

III. IMTIHONGA QO'YILADIGAN TALABLAR

3.1. Ichki abituriyentlar uchun umumiy talablar

Ichki abituriyent – oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, sud tizimi va sudyalarning hamjamiyati organlari va muassasalarida kamida 3 yillik ish tajriga ega bo'lgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Prezident Administratsiyasi rahbari tomonidan tayinlanadigan yoki kelishib olinadigan lavozimlarda faoliyat yuritib kelayotgan hamda "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida magistraturaga o'qishga kirish tanlovlarida ishtirok etuvchi shaxs.

Ichki abituriyentlar uchun magistraturaga qabul mutaxassislik fanlaridan, shuningdek, xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat bo'lmagan taqdirda chet tilidan test shaklidagi tanlov orqali amalga oshiriladi.

Magistraturaga qabul yurisprudensiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan magistraturaga qabul bo'yicha turdosh oliy ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bo'yicha bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

3.2. Imtihonga ruxsat berish tartibi

Ichki abituriyentlar har yili 1-iyuldan 30-iyulgacha (30-iyul kuni ham) O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ro'yxatdan o'tkaziladi hamda hujjatlari elektron platformaga yuklanadi.

Ichki abituriyentlar imtihonga belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgandan va hujjatlar qabul qilinganidan so'ng imtihonga qo'yiladi.

3.3. Identifikatsiya va nazorat qoidalari

Imtihon jarayonida ichki abituriyentlarning shaxsini aniqlash va nazorat qilish belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Identifikatsiya jarayonida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (*pasport yoki ID-karta*) tekshiriladi hamda shaxsga tegishliligi aniqlanadi. Imtihon o'tkazish davomida shaffoflikni ta'minlash va qoidabuzarliklarning oldini olish maqsadida videokuzatuv tizimlari va mas'ul nazoratchilar ishtirokida monitoring amalga oshiriladi.

Ichki abituriyentlarga aloqa vositalari, yordamchi materiallar va ruxsat etilmagan vositalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

IV. BAHOLASH MEZONLARI VA IMTIHONNI O'TKAZISH TARTIBI

4.1. Baholashning umumiy qoidalari

Ichki abituriyentlarning bilimini baholash yagona metodik talablar asosida, xolislik, shaffoflik va adolat tamoyillariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

4.2. Reyting shakllantirish tartibi

Ichki abituriyentlarning reyting ro'yxati ular tomonidan to'plangan umumiy ball asosida shakllantiriladi.

Ichki abituriyentlar to'plagan ballari bo'yicha yuqoridan pastga qarab shakllantiriladi, reyting natijalari qabul kvotalari doirasida saralash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3. Imtihon shakli

Kirish imtihoni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligi (keying o'rinlarda – Agentlik) tomonidan belgilangan tartib asosida test shaklida o'tkaziladi.

Bunda baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:
mutaxassislik fanlari bo'yicha 40 ta test uchun – 80 ball;
chet tili bo'yicha 10 ta test uchun – 20 ball.

Savollar turi: ko'p tanlovli test (A, B, C, D variantlar)

Har bir savol uchun faqat bitta to'g'ri javob belgilanadi.

4.4. Vaqt me'yori

Imtihon vaqtida test savollariga javob berish uchun ajratilgan vaqt oldindan belgilanadi va barcha abituriyentlar uchun bir xil qo'llaniladi. Belgilangan vaqt ichida abituriyent test topshiriqlarini bajarishi shart. Vaqt tugagandan so'ng javoblarni qabul qilish avtomatik ravishda to'xtatiladi va qo'shimcha vaqt

berilmaydi. Vaqt me'yori imtihonning murakkabligi, savollar soni va baholash shaklidan kelib chiqib belgilanadi.

4.5. Tashkiliy jarayon

Test sinovlari Agentlik tomonidan o'tkazilgan taqdirda ularni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi tartiblar e'tiborga olinadi:

mutaxassislik fanlari bo'yicha test topshiriqlari Akademiya tomonidan taqdim etilgan dasturlar asosida, tavsiya etilgan mutaxassislar tomonidan Agentlik binosida maxfiylik ta'minlangan holda shakllantiriladi. Bunda test topshiriqlari o'qitish tilida tuziladi hamda har bir savol uchun to'rtta javob varianti keltirilib, ulardan faqat bittasi to'g'ri bo'ladi;

test sinovlarida qatnashuvchi abituriyentlarning ro'yxati (familiyasi, ismi va otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR)) Akademiya tomonidan Agentlikka taqdim etilgan kundan boshlab o'n besh kun ichida Agentlik tomonidan Akademiya bilan kelishgan holda test sinovi o'tkazish sanasi va vaqti belgilanib, Akademiya bu haqida xabardor qilinadi;

abituriyentlar test sinovlariga shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, identifikatsiya ID-karta yoki haydovchilik guvohnomasi) asosida kiritiladi;

test sinovlari o'tkaziladigan binoga abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilgan holda kiritiladi. Bunda jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, kalkulyator, telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yordamchi materiallarni olib kirish, shuningdek, test jarayonida o'zaro muloqot qilish yoki bir-biriga yordam berish taqiqlanadi. Ushbu talablarni buzgan shaxslar test sinovidan chetlashtiriladi va bu haqda maxsus dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Bunday shaxslar testdan o'tmagan deb hisoblanadi.

4.6. Test savollari javoblarini baholash mezonlari va ballarni hisoblash tartibi

Baholash tizimi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Mutaxassislik fanlari:

Test savollari soni: 40 ta

Umumiy ball: 80 ball

Hisoblash usuli: 1 ta to'g'ri javob = 2 ball

2. Chet tili

Test savollari soni: 10 ta

Umumiy ball: 20 ball

Hisoblash usuli: 1 ta to'g'ri javob = 2 ball

Umumiy ball 100 ball. Imtihon natijasi mutaxassislik fanlari va chet tili bo'yicha to'plangan ballar yig'indisidan iborat bo'ladi.

V. IMTIHONNING MAZMUNI

Kirish imtihoni yuzasidan test sinovlari magistraturaning "Sud faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha tasdiqlangan o'quv rejasi va fan dasturlari asosida shakllantiriladi.

Test savollari abituriyentlarning huquq sohasidagi nazariy bilimlari, huquq normalarini to'g'ri talqin qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalari, sud amaliyotini tahlil qilish, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish hamda sud faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarini baholashga qaratilgan bo'ladi.

Magistraturaga qabul mutaxassislik fanlaridan, shuningdek xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat bo'lmagan taqdirda chet tilidan test shaklidagi tanlov orqali amalga oshiriladi. Bunda chet tili bo'yicha test savollari ingliz, fransuz va nemis tillaridan B2 darajasiga qo'yilgan talablar asosida test savollari tuziladi.

Test savollari tuziladigan mutaxassislik fanlari:

Jinoyat huquqi va jinoyat protsessual huquq normalarini qo'llash amaliyoti

Jinoyat kodeksida umumiy qoidalar va javobgarlik asoslari. Jazo tayinlash. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Iqtisodiyot sohasidagi va korrupsiyaga oid jinoyatlar tahlili.

Jinoyat protsessida asosiy qoidalar va jinoyat protsessi ishtirokchilari. Dalillar. Protsessual majburlov choralari. Protsessual muddatlar. Ishni sudga qadar yuritish. Birinchi instansiya sudida ish yuritish. Alohida toifadagi jinoyat ishlarini yuritish.

Ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish. Aholi salomatligi va milliy genofondga qarshi jinoyatlar tahlili. Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish hamda ijroga qaratish.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash amaliyoti

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ish yuritish qoidalari. Fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari. Sud tarkibi. Bitimlar bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rish amaliyoti. Oilaviy nizolarni sudda ko'rish amaliyoti. Mehnat nizolarini sudda ko'rish amaliyoti. Uy-joy nizolari bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rish amaliyoti. Zarar undirish bilan bog'liq nizolarni sudda ko'rish amaliyoti. Sud buyrug'i tartibida ish yuritish. Mulk huquqi va uni himoya qilish masalalari. Umumiy mulkni bo'lishning moddiy va protsessual jihatlar. Alohida tartibda ish yuritish. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rish amaliyoti. Vorislik huquqi bilan bog'liq nizolarni ko'rish amaliyoti. Sud hujjatlarini qayta ko'rish.

Iqtisodiy sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash amaliyoti

Yuridik shaxs tushunchasi, uning asosiy turlari va moddiy javobgarligi bilan bog'liq qonun hujjatlarini qo'llash. Shartnomalarni sud tartibida tuzish, o'zgartirish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topishning asoslari. Mulk huquqi va ashyoviy huquqlarning o'ziga xos jihatlar. Mulk huquqining sud tartibida bekor qilinishi. Majburiyatlarning bajarilishi va ularni buzganlik uchun javobgarlik masalalari. Mahsulot yetkazib berish va oldi-sotdiga oid boshqa shartnomaviy munosabatlar bo'yicha yuzaga keladigan nizolarni hal etish muammolari. Korporativ nizolarni sudda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy sudlarda ish yuritishning umumiy qoidalari qo'llash bilan bog'liq muammolar. Birinchi instansiya sudida da'vo bo'yicha ish qo'zg'atish va ish yuritish bilan bog'liq protsessual masalalar. Hakamlilik va arbitraj muhokamasi bilan bog'liq hamda chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritish muammolari. Intellektual mulk huquqi, raqobatga oid va investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlar. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlarni iqtisodiy sudda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari. Sud hujjatlarini apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida hamda yangidan ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish bilan bog'liq muammolar.

Ma'muriy sudlarda moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash amaliyoti

Ma'muriy tartib-taomillar umumiy tushunchalari. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar. Saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar. Notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar. Notarius va advokatlarning litsenziyasini to'xtatish, tugatishga oid ishlar. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlar. Ma'muriy sudlarda yer to'g'risidagi nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq bilan bog'liq nizolarning ma'muriy sudlarda ko'rishning moddiy va protsessual xususiyati. Ma'muriy sudlarda shaharsozlik to'g'risidagi nizolarni ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti bilan bog'liq ishlarning ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlari. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi bilan bog'liq ishlarning ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqish. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilishi bilan bog'liq ishlarning ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati bilan bog'liq nizolarning ma'muriy sudlar tomonidan ko'rish. Majburiy ijro byurosining qarorlari va mansabdor shaxslarining harakatlari(harakatsizligi) bilan bog'liq ishlar. Sud hujjatlarini apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida qayta ko'rish.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati

Sud tizimini modernizatsiya qilish va sud mustaqilligini ta'minlash choralarini kuchaytirish. Huquqiy yordam va advokatura institutini rivojlantirish, erkin va samarali huquqiy xizmatlar ta'minoti. Jinoyat va fuqarolik protsessual islohotlari: tezlik, oshkoralik va samaradorlikni oshirish. Sud qarorlarini ijro etish tizimini takomillashtirish va kadastr-huquqiy nizolarni hal etish mexanizmlari. Elektron sud va raqamlashtirish: hujjat aylanishi, masofaviy sud yig'ilishlari va ma'lumotlar bazalari. Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, sud-huquqiy ta'lim va sud qarorlariga murojaat qilish mexanizmlarini soddalashtirish.

Konstitutsiyaviy huquq asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari va O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi. Inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Tashqi siyosat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyati institutlari. Sud hokimiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Asosiy adabiyotlar

1. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. 2-qism. Darslik. T.: TDYUU, 2019. -684-b.
2. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. 1-3-jildlar: 2024.
3. Azizov X.T. Bankrotlikni huquqiy tartibga solish. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. – 190 bet.
4. Berdiyarov R.T., Habibullayev D.Yu. Iqtisodiy protsessual huquq / O'quv qo'llanma. -T.: TDYUU nashriyoti, 2024. – 256 b.
5. Iqtisodiy sudlarda birinchi instansiyada ish yuritish [Matn]: / Bayzakova N., Qalandarova M. – Toshkent: Lesson press , 2019. – 224 b.
6. Iqtisodiy ishlarni birinchi instansiya sudlarida ko'rish tartibi: amaliy qo'llanma / Qalandarova M. va boshq. – Toshkent: Baktoria press, 2020.– 140 b.
7. Iqtisodiy protsessual huquq / Darslik. Mas'ul muharrir yu.f.d. Z.Esanova. - Toshkent: TDYU, 2020. - 529 b.
8. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 416 bet.
9. Iqtisodiy ishlar bo'yicha sud hujjatlari namunalari. Birinchi instansiya sudi. / Amaliy qo'llanma. C.B.Xolbayev, F.X.Otaxonov. – T: Dimal, 2024 y. – 264 b.
10. Otaxonov F. Shartnomalar, da'vo arizalari, mediatsiya va hakamlilik sudlari / Amaliy qo'llanma /. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 480 b.
11. Otaxonov F.X, Xolbayev C.B, Qalandarova M.P Iqtisodiy sudlarga murojaat qilish tartibi. Risola. Toshkent – 2024.–52 b.
12. Otaxonov F. Vakolatli sudlarda hakamlilik muhokamasi bilan bog'liq ishlarni yuritish /Amaliy qo'llanma/ – T.: “Renessans Press”, 2025. – 472 b.
13. Qalandarova M., S.Xolbayev. “Iqtisodiy sudlarda davlat bojini undirish tartibi”. Amaliy qo'llanma. T.: “IMPRESS MEDIA”, 2023 y. -157 b.

14. Qalandarova M., Xolbayev C.. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “Tadbirkorlar huquqi sud himoyasida”/ Amaliy qo‘llanma. (To‘ldirilgan ikkinchi nashr) – Toshkent. “Dimal”. 2024. – 136 b.

15. Mualliflar jamoasi Ma’muriy sud ish yurituvi. Darslik. Toshkent -2023.

16. Mualliflar jamoasi Ma’muriy sud ish yurituvi. Darslik. Toshkent -2024.

17. Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning ayrim prinsiplariga doir tushuntirishlar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent, 2024-yil. “Adolat” milliy huquqiy markazi. -80 b.

18. Nematov J. Ma’muriy huquq faniga kirish: qiyosiy-huquqiy tahlil. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T.: Top Image Media, 2020. – 130 b.

19. Nematov J.N. Ma’muriy tartib-taomillar. Darslik. TDYU nashriyoti, 2024. – 400 b.

20. M.M. Abdullayyeva. Konstitutsiyaviy nazorat va konstitutsiyaviy odil sudlov: darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2024. – 11–17-betlar.

21. M.M. Abdullayyeva. Konstitutsiya va qonunning ustunligi. – Toshkent: TDY, 2023. – 9–38 –betlar.

22. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYUU nashriyoti, 2024. – 15-42-betlar

23. Husanov.O. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. –T. Yuridik adabiyotlar publish, 2023. 7-32-betlar

Normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Sudyalar odobi kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi
7. “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

8. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

9. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

10. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi

11. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi

12. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi

13. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi

14. O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi

15. O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni

16. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi

17. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi

18. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni

19. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni

20. O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni

21. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni

22. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonuni

23. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni

24. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi

25. O‘zbekiston Respublikasining «Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida»gi Qonuni

26. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi

27. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni